

UO'T 37.013

TA'LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI

Isag'aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna

Farg'ona davlat universiteti Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida o'qituvchisi
sadafxonisagaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada ta'lim samaradorligini tashkil etishning yo'llari ko'rsatilgan bo'lib, hozirgi globallashuv jarayonida raqamli axborot asrida savodxonlikni oshirishning choralari to'g'risida.*

Kalit so'zlar: *funksional savodxonlik, maktab, ta'lim tizimi, pedagogik jarayon, raqamlashtirish.*

Аннотация: *В статье показаны пути организации эффективности образования, о мерах по повышению грамотности в современных процессах глобализации - в век цифровой информации.*

Ключевые слова: *функциональная грамотность, школа, образовательная система, педагогический процесс, цифровизация.*

Annotation: *The article shows the ways of organizing the effectiveness of education, about measures to improve literacy in modern processes of globalization - in the age of digital information.*

Key words: *functional literacy, school, educational system, pedagogical process, digitization.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimini mazmunan yangilash, axborotlar globallashgan bir davrda pedagogik faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, mazkur jarayonga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, didaktik jarayonda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanishni takomillashtirishga oid metodik bilim, ko'nikma va malakalarini yangilash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 13]

Material va metodika. Jamiyat taraqqiyoti nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksakligi bilan balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg'un rivojlanishiga qanchalik yo'naltirilganligi, innovatsiyalarni tadbiq etilganligi bilan ham o'lchanadi. Demak, ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, chet elning ilg'or tajribalarini o'rganish va ta'lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

O'qituvchi biologik ta'lim samaradorligiga erishish va o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishi uchun ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish usullarini bilishi lozim. [3, 11, 12]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan murojatnomasida 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berishning taklif etilishi, maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, ta'lim sohasini to'liq raqamlashtirish, davlat-hususiylar sheriklik mexanizmlarini ham maktab ta'limi sohasiga ham

keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligi ta'kidlab o'tilgan. [1, 14, 15, 16, 17, 18, 19]

Ushbu murojatnomada birinchi o'ringa xalqning bilim darajasini oshirish masalasi qo'yilgan, bu millatning raqobatbardoshligini ko'rsatuvchi omil ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Shu sababli, tabiiyki, ushbu hujjatda zamonaviy talablar va jahon standartlariga javob beradigan milliy ta'lim tizimini yaratish muammosi ham o'z aksini topgan.

Ta'lim masalasi jahonning ko'plab mamlakatlarida muhim vazifalar qatoridan o'rin olgan. Ko'pchilik davlatlarda global raqobat sharoitidagi yangi talablarga javob beruvchi, moslashuvchan ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy maqsad maktablarning va o'quv dasturlarining moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshirish akademik va tashkiliy tuzilmani isloh qilish, infrastrukturani, ta'lim metodlari va texnologiyalarini yangilash, pedagogik jarayonni takomillashtirish, o'qituvchilar tarkibiy sifatini yaxshilash orqali amalga oshiriladi. [4, 20, 21, 22]

Fanlarni o'qitishning ustivor yo'nalishlarini belgilash, ular orqali ta'lim-tarbiya jarayoniga to'g'ri yondashish, raqobatbardosh kadr va ularning barkamolligini shakllantirish masalalariga e'tibor berish, mavzularni o'qitishda innovatsion va pedagogik texnologiyalardan o'rinda foydalanish, o'quvchilarda fanlarni puxta o'rganishga bo'lgan qiziqish ehtiyojini kuchaytirish, bilish faoliyatini faollashtirishning samarali o'qitish metodlari, shakl va vositalarini uzviylashtirish orqali o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish hamda o'quv jarayoniga tatbiq etish mumkin. Bu borada pedagogika sohasida raqamlashtirish jadal ketayotgan sharoitda o'quvchilarning savodxonligini oshirish yo'llarini izlash, ularning muammolariga yechim topish va sifatli ta'lim muhitini yaratish ustida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. [2, 5, 23, 24]

Muxokama. Ta'lim sohasidagi halqaro qiyosiy-statistik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, respublikamiz ta'lim muassasalari o'quvchilari biologiya fani bo'yicha bilim jihatidan ancha kuchli, ammo ularning bu bilimlarini amaliy yo'naltirish, shu jumladan hayotiy muhim jarayonlarda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu munosabat bilan ta'limning vazifalaridan biri o'quv faoliyati bilan bog'liq holda o'quvchilarning amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishning eng yahshi usullarini topish va amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishdir, ya'ni ularning funksional savodxonligini samarali shakllantirish zarur. Shuning uchun zamonaviy taraqqiyotga mos holda o'quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirishni raqamli ta'lim muhitida amalga oshirishga qaratilgan metodik ta'minotini mustahkamlash, uning samaradorligini orttirishga yordam beradigan omillarni izlash hamda o'quvchilarda natijadorlikka erishish muhimdir. Yakunda esa amalda erishilgan natijadorlik paydo bo'ladi. Bu funksional savodxonlikdir. [7]

Funksional savodxonlik - bu shaxsning, jamiyatning tashqi muhit bilan munosabatlarga kirishish va o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashish va ishlash qobiliyati hisoblanadi. U bilimlarni egallash, bilish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ilmiy bilimlarni doimiy boyitish va ularni amaliyotga tatbiq etishni o'z ichiga oladi, ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxsning me'yoriy yashashi va faoliyat yuritishini ta'minlaydi [1].

Funksional savodxonlikni shakllantirishning turli bosqichlarida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi munosabatlar darsning turli bosqichlarida: maqsad qo'yish, rejalashtirish,

qaror qabul qilish, amalga oshirish, natijalarni baholashda sodir bo'ldi.

Biologik bilimlar inson madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirish uchun asos bo'lish bilan birga tiriklik to'g'risidagi axborotlar hamdir. Biologik bilimlar haqidagi axborotlarning ahamiyati sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson-tabiati tizimida o'zaro munosabatda bo'lish bilan birga ijobiy axborotlarni hayotda qo'llash imkoniyatlari oshiradi.

O'quvchilarning funksional savodxonligini yo'naltirilgan-kompetentsiyaviy, yaxlit topshiriqlar va axborot texnologiyalari yordamida shakllantirish mumkin. Buning uchun biologiya fanini o'rganishda o'quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirish bo'yicha o'quv va kognitiv kompetentsiyani shakllantirish mezonini sifatida har xil turdagi vazifalar ishlab chiqish taklif etiladi.

Xulosa. O'quvchilar uchun taklif qilingan vazifalar axborot, kommunikativ, kundalik, kognitiv kabi vakolatlarni rivojlantirishga yordam berishi kerak. Vazifalar maktab o'quvchilarining ta'lim ishlarini kuchaytirish, ularning tashkilotchiligini, mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni topish va ulardan foydalanish, guruhlarda, juftlikda, yakka tartibda ishlash, nostandart vaziyatlarda yechim topish qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.

O'quvchilarning funksional savodxonligini oshirishga, shaxsning o'zini-o'zi rivojlanishini ta'minlashga, bilim olishda mustaqillikka, muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga, axborot va texnologiyalardan foydalanish, muammolarni hal etish, tadbirkorlik va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan axborot-ta'lim muhitini rivojlantirishga xizmat qilishiga alohida etibor qaratilishi kerak.

Bugungi kunda biologik savodxonlikni oshirishda o'quvchining o'zi yashayotgan dunyoda o'rnini aniqlash va tushunish, biologik to'g'ri xulosalar chiqarish, biologiyadan ijodiy, qiziqish va kelajak ehtiyojlarini qondiradigan tarzda foydalanish qobiliyatini shakllanishiga xizmat qiladigan axborotlarni jamlashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

25. “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон.// <https://nrm.uz/contentf?doc=587716>

26. Фролова П.И. К вопросу об историческом развитии понятия «Функциональная грамотность» в педагогической теории и практике // Наука о человеке: гуманитарные исследования. 2016. №1(23), 179-185. DOI: 10.17238/issn1998-5320.2016.23.179.

27. Волкова Т.В. Сборник заданий на функциональную грамотность по биологии.//https://znanio.ru/media/sbornik_zadaniy_na_funktsionalnuyu_gramotnost_po_biologii-138886.

28. Ахмаджонова, С. Ш., & Каюмова, О. И. (2021). Биология фанини ўқитишда муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш. *Общество и инновации*, 2(4/S), 42-45.

29. Akhmadjonova, S., & Turkistonova, M. (2020). USE OF DIDACTIC GAME TECHNOLOGY IN TEACHING YOUTH PHYSIOLOGY LESSONS. In

ПРОРЫВНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ, ЗАКОНОМЕРНОСТИ, ПЕРСПЕКТИВЫ (pp. 171-173).

30. Isagaliyeva S. Functional literacy as a factor of formation of practical competences. / I International Scientific and Practical Conference «Challenges and problems of modern science», October 13 - 14, 2022, London, United Kingdom. 127 p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7226182>.

31. Toshtemirova M., Isagaliyeva S. Main activity criteria in the development of imagination of primary school students.// Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Volume 3, Issue 6, June, 2022 Pp. 320-322 DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7BVKM>.

32. Sodikova, M. B. K., & Isagaliyeva, S. M. (2021). RHYACHITES AARATASS AND RHYNE KITES AURATAS S. SP. BIOECOLOGICAL PROPERTIES OF TYPES. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 1341-1346.

33. Закирова, С. Х., Акбаров, Р. Ф., & Исагалиева, С. М. (2020). Водно-физические свойства слабодэфлированных почв в Фергане. In *Наука сегодня: теоретические и практические аспекты* (pp. 4-5).

34. Mirzakarim o'g'li, M. M., & Axmadali o'g'li, Y. A. (2022). MATBUOT KONFERENSIYASI DARSİ MISOLIDA G'O'ZA GENETİKASI VA SELEKSIYASI MAVZUSI DOIRASIDA O'QUVCHILARNI BİLİM VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USLUBLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 510-514.

35. Мирзахалилов, М. М. Ў. (2022). ГИДРОХИМИЧЕСКИЙ СОСТОЯНИЕ ПРУДОВ РЫБОВОДНЫХ ХОЗЯЙСТВ И СЕЗОННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ИХ. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 108-113.

36. Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М. Ў., Назаров, М. Ш., & Шарипова, Б. С. (2022). СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА МОРФОБИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ АМУРСКОГО ЧЕБАЧКА (PSEUDORASBORA PARVA) КАК ИНВАЗИВНОГО ВИДА. *Science and innovation*, 1(D2), 50-54.

37. Yoqubov, A. A. O. G. L., & Mirmuxsin, M. U. O. G. L. (2022). KOMPLEMENTAR IRSIYLANISHGA DOIR MASALALARNI YECHISHDA x2 METODI ASOSIDA F2 DAGI AJRALISHNI STATISTIK USULDA TEKSHIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 270-284.

38. Юнусов, М. М., Ахмаджонова, С. Ш., & Содикова, Ш. С. (2022). ЗАРАКУНАНДАЛАРГА ҚАРШИ ОЛТИНКЎЗ (CHRYSOPIDAE) ОИЛАСИГА МАНСУБ ТУРЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 378-384.

39. Yunusov, M. M., & Zokirov, I. I. (2021). FARG 'ONA VODIYSINING AYRIM DENDROFIL SHIRALARI (НОМОПТЕРА, АРНІДОІДЕА) ВІОЕКОЛОГІЯСІ. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 1289-1299.

40. Мустафакулов, Х., Юлдашева, Ш., Юнусов, М., & Шерматов, А. (2013). Роль сорной растительности при формировании полезной энтомофауны агробиогенезов Ферганской долины. *Аграрный вестник Урала*, (3 (109)), 12.

41. Мирзақулов, А. М. (2022). ФИЗИК ХОДИСАЛАРНИНГ ЧИЗИКЛИ РЕГРЕССИЯ ТАХЛИЛИ. *Science and innovation*, 1(A3), 97-102.
42. Юнусов, М. М., Сабилова, Г. Х., & Хабибуллаев, Ф. Н. (2022). ПРОБЛЕМА ЗДОРОВЬЯ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ. *Science and innovation*, 1(D3), 89-90.
43. Зокиров, И. И., Маърупов, А. А., Султонов, Д. Ш., & Азамов, О. С. (2021). Узунмўйлов қўнғизларнинг (Coleoptera: Cerambycidae) озуқа ўсимликлари билан биоценодик алоқалари. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 349-355.
44. Марупов, А. А. (2021). Biology and harmfulness of long-beetled beetles (Coleoptera: Cerambycidae) flowing on poplars. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 3(1), 56-61.
45. Акрамјоновна, О. С. (2022). UY PARMALOVCHISI (ANOBIUM PERTINAX L.) NING BIOLOGIYASI, OZIQA MANBALARI VA ZARARI. *Ta’lim fidoyilari*, 8, 135-140.
46. Акбарова, М. Х., Ёқубов, А. А., & Махмудов, М. У. (2020). Состояние ценопопуляций *Scutellaria adenostegia* (Lamiaceae) Ферганской долины. *Advances in Science and Technology*, 21-22.
47. Abarjon o‘g‘li, A. A. (2022). SHO ‘RLANGAN ERLARDA DUKKAKLI DON EKINLARINI EKISHNING AFZALLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(18), 351-354.
48. Gadoev, A., Turkistonova, M., Sharipova, B., & Payzieva, O. (2021). LESIONS OF HUMANS WITH SARCOSPORIDIA. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(12), 290-294.